

**O'QITUVCHINING KASBIY DEFORMATSIYASI VA UNI
KORREKSIYALASH YO'LLARI**

Muxtarova Mavjuda Abdurazakovna

*Surxondaryo Viloyati Qumqo'rg'on tumanidagi 11-sonli umumtalim
maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada umuta'lim maktab o'qituvchilarning kasbiy deformatsiyasi va bu jarayondagi turli psixologik buzilishlarning kelib chiqish sabablari, korreksiya omillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: pedagog, kasbiy deformatsiya, ruhiy salomatlik, kuyish sindromi, emotsiogen omillar, psixoprofilaktik tadbirlar

Kirish. “O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” Sh.M.Mirziyoyev.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ham ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'tarish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamdagi o'zgarishlar samarasini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF80-son 2022-2027-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to'g'risida”gi Farmonida “pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” kabi muhim vazifalar belgilandi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishi jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishida tub burilish yasadi. Bunday sharoitda yangilanayotgan jamiyatning ma'naviy rivoji, jumladan ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqib, yuksaltirishni nazardatutgan g'oyalar ilgari surildi.

Ularning ichida, Respublika ta'lim tizimini maqsadga muvofiq holda qayta qurish, uni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish, yangi mazmunini belgilash, o'quv jarayoniningsamarali shakl, usullarini aniqlash, milliy o'zligini

anglash, xalqning boy madaniy va ma'naviymerosiga munosabat kabi jihatlar eng dastlabki maqsad va vazifalar sirasiga kiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimi jadal rivojlanib borayotgan sharoitda pedagoglarning kasbiy faoliyati yanada murakkablashmoqda. O'qituvchilar doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish zaruriyati oldida turishadi. Bunday sharoitda doimiy bosim, mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va turli omillar pedagogning kasbiy deformatsiyasiga olib kelishi mumkin. Kasbiy deformatsiya pedagogning ish unumdorligiga, psixologik holatiga va ta'lim sifati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bu jarayonning oldini olish va uni korreksiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglarni psixologik qo'llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanish uchun sharoit yaratish, stress omillarini kamaytirish kabi chora-tadbirlar bu muammoni yumshatishga yordam beradi. Ta'lim jarayonining asosiy markaziy figuralaridan biri sifatida pedagog shaxsi shakllanishi muammosi xozirgi zamon psixologiya fanining dolzarb mavzularidan biridir. Zero ta'limning sifati va samarasi pedagogik jarayonda faoliyat yuritayotgan kadrlarning har tomonlama tayyorgarligiga va kasbiy deformatsiyasiga bog'liqdir. O'qituvchilar doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallash, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish zaruriyati oldida turishadi. Bunday sharoitda doimiy bosim, mehnat faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va turli omillar pedagogning kasbiy deformatsiyasiga olib kelishi mumkin. Kasbiy deformatsiya pedagogning ish unumdorligiga, psixologik holatiga va ta'lim sifati rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bu jarayonning oldini olish va uni korreksiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglarni psixologik qo'llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanish uchun sharoit yaratish, stress omillarini kamaytirish kabi chora-tadbirlar bu muammoni yumshatishga yordam beradi. Bundan kelib chiqadiki, pedagogning kasbiy faoliyati davomida yuzaga keladigan salbiy va ijobiy o'zgarishlarni va ularni tartibga solish bo'yicha tizimli ishlar olib borilganligini ko'rsatadi. O'qituvchining kasbiga oid uzoq muddatli faoliyati davomida uning fikrlash

tarzida, xatti-harakatlarida va shaxsiy xususiyatlarida turli xil muammoli vaziyatlar yuzaga keladi va bu holat deformatsiya tushunchasini anglatadi. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Kasbiy deformatsiya” tushunchasi ilk bor psixologiya va sotsiologiya fanlarida paydo bo‘lgan. Bu atama insonning ma’lum bir kasb faoliyati davomida shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvori va emotsional holatlarining asta-sekin o‘zgarib borishini ifodalaydi. Ushbu tushuncha asosan emotsional zo‘riqish, ruhiy charchoq, ijtimoiy rollarning buzilishi natijasida yuzaga chiqadi. Bu masalani dastlab 20-asrning o‘rtalarida g‘arbiy psixologlar, xususan A. Maslow, K. Levin, R. Lazarus, K. Rogers, F. Taylor, H. Selye kabi olimlar insonning kasbiy faoliyatdagi ruhiy holatlari va stress omillarining ta’siri orqali izohlashga harakat qilganlar. Keyinchalik bu tushuncha pedagogik faoliyatga ham ko‘chdi va “pedagogik kasbiy deformatsiya” alohida ilmiy yo‘nalishga aylandi. Kasbiy deformatsiya tushunchasini kim ilgari surgan? “Kasbiy deformatsiya” atamasi birinchi bor rus olimi A.K. Markova tomonidan pedagogik faoliyat doirasida chuqur tahlil qilindi. U o‘zining “O‘qituvchining kasbiy faolligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasi” (1996) nomli asarida o‘qituvchi shaxsining kasbiy jarayonlarda o‘zgarishi, ruhiy-psixologik salomatligining buzilishi haqida to‘xtalgan. A.K. Markova fikriga ko‘ra, pedagogik kasbiy deformatsiya — bu o‘qituvchining ichki resurslarining kamayishi natijasida paydo bo‘ladigan ruhiy va shaxsiy o‘zgarishlardir. Bu holat pedagogning dars o‘tish uslubi, shaxslararo munosabati va ta’lim sifati pasayishiga olib keladi. Bu borada kasbiy intilish, mehnat ishonchliligini ta’minlash, mehnat qobiliyatini oshirish muammolari, shuningdek, kasbiy faoliyatdagi noqulay sharoit bilan bog‘liq vaziyatlar tadqiq etilgan ilmiy izlanishlarni ko‘rish mumkin. Biroq professional deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirish masalalariga bir muncha kam e’tibor qaratilgan. Kasbiy pedagogik deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirish uchun esa birinchi navbatda professional deformatsiyaning mazmun-mohiyati va uning rivojlanishi sabablarini o‘rganmoq lozim. Tadqiqot metodologiyasi. Deformatsiya – (lotincha “deformation” – “buzilish”, “o‘zgarish”) bu tashqi va ichki ta’sirlar natijasida tana shakli va funksiyalarining o‘zgarishidir,

degan ma'noni anglatadi. Kasbiy deformatsiya – bu kasbiy faoliyatda tashqi va ichki omillar ta'siri natijasida mutaxassisning kognitiv, xulq-atvor va motivatsion sohasida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlardir.

Pedagoglik kasbi - "Inson-Inson" turkumidagi kasblar sirasiga kirib, bu esa o'z navbatida shaxslararo munosabatlar natijasida emotsiogen omillarni yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi. Psixoemotsional omillar ta'sirida kasbiy dezadaptatsiya va kasbiy yaroqsizlik holatlari kelib chiqishi tabiiydir. Psixologiya fanining asosiy kategoriyalaridan bo'lgan faoliyatning bir ko'rinishi mehnat faoliyatida, o'yin va o'quv faoliyati natijasida o'zlashtirilgan ko'nikma, malakalar amaliyotga ko'chadi. Amaliyotga tatbiq qilishnashida o'ziga xos muammolarning kelib chiqishi muntazam kuzatiladi.

Kasbiy deformatsiya (mehnatga moslashish, ko'nikish) - bu shaxsning yangi mehnat vaziyatini o'zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo'lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta'sir ko'rsatadi va moslashuvchi-moslashtiruvchi tizimlar hisoblanadi. Ya'ni birinchi tomondan shaxs muayyan mehnat jamoasining kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimiga faol kirishib ketadi, o'zi uchun yangi bo'lgan ijtimoiy vazifalarni, qadriyatlar va normalarni o'zlashtirib oladi, o'zining alohida tutgan yo'lini tashkilot (mehnat jamoasi)ning maqsad va vazifalari bilan moslashtiradi, bu bilan o'zining xulqini mazkur ta'lim muassasaning xizmat yo'l-yo'riqlariga bo'ysundiradi. Ikkinchi tomondan shaxs o'zida avvaldan qaror topgan muayyan maqsadlar, qadriyatli muomala yo'nalishiga ega bo'ladi, shularga muvofiq korxonaga bo'lgan o'z talablarini shakllantiradi. Shaxs va ta'lim muassasasi o'z talablarini amalga oshira borib, o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar, bir-birlariga moslashadilar, buning natijasida mehnatga moslashuv jarayoni amalga oshiriladi.

Deformatsiya tushunchasi, odatda, organizmga ta'sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o'zgarish sifatida talqin qilinadi. Ko'pgina tadqiqotchilar "Inson-Inson" tipidagi kasblarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo'lishi va shakllanishini ta'kidlaydilar. Insonning muayyan mehnat muhitiga moslashuvi uning kundalik muomalasida, mehnat faoliyatining aniq

ko'rsatkichlarida, mehnat samaradorligida, ijtimoiy axborot va uning amalda ro'yobga chiqarilishida, faollikda namoyon bo'ladi. Mehnatga moslashish birlamchi bo'lishi (xodimning mehnat muhitiga kirishida) va ikkilamchi (kasbni almashtirgan va almashtirmagan holda ish o'rnini almashtirishida yoki muhitning jiddiy ravishda o'zgarishida) bo'lishi mumkin. Ular murakkab tuzilishga ega bo'lib, quyidagi moslashuvlardan iboratdir:

1. Kasbiy moslashuv - shaxsning kasbiy ko'nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashida, unda ayrim kasbiy jihatdan zarur hislatlarning shakllanishida, xodimning o'z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo'lishining rivojlanishida ifodalanadi. Kasb sohasidagi ish bilan tanishuvida, kasb mahorati ko'nikmalarini, funktsional vazifalarni sifatli bajarishida va mehnat sohasidagi ijodkorlikda namoyon bo'ladi.

2. Ijtimoiy-psixologik moslashuv - ta'lim muassasasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zlashtirishda, unda qaror topgan o'zaro munosabatlar tizimiga kirishda, uning a'zolari bilan o'zaro ijobiy hamjihat bo'lishda o'z ifodasini topadi.

3. Ijtimoiy-tashkiliy moslashuv - ta'lim muassasasining tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat ko'rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o'zlashtirishni bildiradi.

4. Madaniy-maishiy moslashuv - bu mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo'sh vaqtni o'tkazish an'analarini o'zlashtirishdir. Bu moslashuv xususiyati

ishlab chiqarish madaniyati darajasi, tashkilot a'zolarining umumiy rivojlanishi, ishdan bo'sh vaqtdan foydalanish xususiyatlari bilan belgilanadi.

5. Psixofiziologik moslashuv - bu xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo'ladigan shart-sharoitlarni o'zlashtirish jarayonidir.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchi sifatida xizmat ko'rsayotgan pedagogig faoliyatdagi hissiy toliqish sindromi quyidagi sababalar bilan bog'liq ekanligini psixoprofilaktik tadbirlar natijasida aniqlandi:

1. Informatsiyaning haddan ziyod ko'pligi;

2. Vaqtni to'g'ri taqsimaslik;
3. Metodik ta'minotning noto'liqligi;
4. Muassasa rahbarlarining noto'g'ri muomalasi;
5. Pedagogik jamoadagi ma'suliyatning noto'g'ri taqsimlanganligi;
6. Pedagogik jamoadagi noturg'unlik va boshqalarga nisbatan tolerant munosabatni shakllantirish orqali amalga oshiradi.

Buning uchun kasbiy psixoprofilaktika quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ma'lumotli - asosiy maqsad kasbiy yangiliklar haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish.
2. Tashkiliy - turli ta'lim muassasalaridagi ishni to'g'ri taqsimlanishi.
3. Adaptiv korreksion profilaktika - shaxsning kasbiy moslashuvi, ya'ni pedagogik jamoaga moslashuvini o'z ichiga qamrab oladi.
4. Pedagoglardagi depressiyani oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlar.
5. Pedagogik jamoadagi hamkorlik buzilganda, nizolar yuzaga kelganda olib boriladigan korreksion profilaktika.
6. Kasbiy rehabilitatsiya.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.P.Anikeev Jamoada ruhiy muhit.-.: T "O'qituvchi", 1993 y.
2. SH.A.Do'stmuhammedova O'qituvchilarning o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi.-.: T , 2000 y.
3. Z.T.Nishanova Psixologik xizmat.-.: T, 2015 y.
4. Давлетшин М.Г. Жалилова С.Х. Олий мактабда таълим жараёнини самарадорлигининг психологик томонлари. – Т., 2001. – 10 б.
5. Boynazarovna, A. S. (2022). Innovatsion faoliyat va axborotlar bilan ishlashga ijtimoiy-madaniy adaptatsiya hosil qilish muammosining psixologik asoslari. Ta'lim fidoyilari, 21, 73-77.